

MUSIQA OLAMIDA IMPRESSIONIZM TUSHUNCHASI VA UNING YORQIN VAKILI KLOD DEBYUSSI IJODIGA BIR NAZAR

Quvatova Zarnigor

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi

1 - bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: dotsent v.b.

Kabduraxmanova L.B.

Annotatsiya: So'nggi yillarda mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jahon musiqa madaniyati namunalarini o'rganish barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Klod Debyussi XX asr Yevropa musiqasida yangi yo'nalish yaratgan buyuk bastakorlardan biri bo'lib, uning ijodi impressionizm va simvolizm oqimlari ta'sirida shakllanib, o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Debyussining fortepiano asarlari uning ijodiy merosining muhim qismini tashkil etadi va ijrochilik nuqtai nazaridan ham qiziqarlidir.

Kalit so'zlar: klassik, romantik transkripsiya, garmonik, tembr, faktura, modallik, pentatonika, akkord, alteratsiya, orkestr, ritm.

Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, xissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Musiqa asari insonlar qalbiga yetib borishi va ularni fikr-mulohaza qilishga undashi kerak. Zero musiqa insonlar hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa

ulkan kuch hisoblanadi. U insonlarni yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi. Qalblarda go‘zallikni xis eta olish, go‘zallikni qadrlash kabi xis-tuyg‘ularni shakllantira oladi.

Yosh ijrochilarni tayyorlashda jahon xalqlarining klassik va romantik durdona asarlari qatori, XX asr musiqasi namunalarini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Klod Debyussi ijodidagi fortepiano asarlari bu borada alohida o‘rin tutadi. Uning “Romantik Vals” kabi asarlarini o‘rganish jarayonida kompozitorning o‘ziga xos uslubi, fortepiano imkoniyatlarini chuqur bilishi va ijro uslubiga e‘tibor qaratish lozim.

Debyussi boshqa kompozitorlar asarlarini fortepiano uchun qayta ishlagan transkripsiyalar yaratmagan bo‘lsada, uning o‘z fortepiano asarlari o‘ziga xos “transkripsiya” xususiyatiga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U orkestr asarlaridagi rang-baranglik va to‘liqlikni fortepiano vositasida yetkazib berishga intilgan. Masalan, “Romantik Vals” asarida orkestrga xos bo‘lgan tembrlar, garmonik va fakturaviy boylik fortepiano vositasida mohirona ifodalangan.

Impressionizm musiqada ham tasviriy san’atdagi kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, XX asr Yevropa musiqasining muhim oqimlaridan biriga aylandi. Musiqiy impressionizm, voqelikni aniq tasvirlash o‘rniga, kompozitorning sub’ektiv taassurotlarini, lahzalik his-tuyg‘ularni va nozik kayfiyatlarni ifodalashga qaratilgan. Musiqiy impressionizmning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Impressionist musiqa ko‘pincha noaniq, tushunarsiz va orzusimon tusga ega. Aniq shakllar va tuzilmalar o‘rniga, erkin oqim, musiqiy “suv oqimi”ga o‘xshash tuzilmalar qo‘llaniladi. Bu tinglovchida turli xil tasavvurlarni uyg‘otish, musiqani o‘ziga xos tarzda talqin qilish imkoniyatini beradi;

Impressionism kompozitorlar an’anaviy garmoniya tizimlaridan chetlashib, yangi, o‘zgacha tovushlar va akkordlarni qo‘llashgan. Modallik, pentatonika, butun ton gammasi, kengaytirilgan akkordlar, alteratsiyalar kabi vositalar impressionist musiqaga xosdir;

- kompozitorlar tembr nozikliklariga, tovush ranglarining uyg'unligiga katta e'tibor berishgan. Ular orkestrning rang-barang imkoniyatlaridan foydalanib, o'zgacha tovush va kayfiyat yaratishga intilishgan. Fortepiano musiqasida ham turli xil tembr bo'yoqlardan foydalanilgan;
- impressionism musiqada aniq, barqaror ritm o'rniga, o'zgaruvchan, noaniq ritmik tuzilmalar qo'llaniladi. Bu musiqaga erkinlik, oqim va jozibadorlik baxsh etadi.

Impressionism kompozitorlar Sharq musiqasi, Ispan va rus musiqasi kabi boshqa madaniyatlar musiqasidan ta'sirlanib, o'z asarlarida ekzotik ohanglar, ritmlardan foydalanganlar.

Musiqiy impressionizmning yorqin vakillari orasida Klod Debyussi, Moris Ravel, Erik Sati kabi fransuz kompozitorlarini aytib o'tish mumkin. Ularning ijodi XX asr musiqasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi va keyingi avlod kompozitorlari uchun yangi yo'llar ochib berdi.

Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati

1. Vladimirov V. Musika san'ati haqida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. - 89-bet.
2. История музыки народов СССР. - М.: Музыка, 1970-1983. - 5 т. (Turli xalqlar musiqasining tarixiy rivojlanishi, janglarda musiqaning roli)
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 17-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida: 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PF-6225-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 06/21/6225/0427-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.09.2016 y., 03/16/481/0866-son.
6. Druskin M.S. "Klod Debyussi". - L., 1987.